



O'QUVCHILARNING YOZMA SAVODXONLIGINI OSHIRISH UCHUN TAVSIYALAR

Tosheva Nargiza Qosimovna

Buxoro viloyati Shofirkon tumani

38-IDUMning Boshlang'ich fani o'qituvchisi

Gafforova Shohida Qosimovna

Buxoro viloyati Shofirkon tumani

38-IDUMning Boshlang'ich fani o'qituvchisi

Jamolova Laylo Ilhomovna

Buxoro viloyati Shofirkon tumani

38-IDUMning Boshlang'ich fani o'qituvchisi

Annotatsiya: *Ushbu maqolada yozma savodxonlikni oshirishga doir bir qancha tavsiyalar berilgan.*

Imlo nafaqat insonning savodini,balki uning ilmiy salohiyatini ham ko'rsatib beruvchi omildir.Husnixat bilan xatosiz yozish insonning ma'lnaviy ko'rki,yuzidir.Afsuski,yozma nutqimizda hamma ham imlo qoidalariiga riosa qilavermaydi.Ommaviy axborot vositalari,afishalardagi ayrim kamchiliklar yoshlarimiz savodiga sezilarli ta'sir qilyapti.Shuning uchun hozirgi davrda bizdan talab qilinadigan vazifa o'quvchilarning imloviy xatolarsiz,chiroyli husnixat bilan yozishga o'rgatish,kreativ fikrlash va nutqiy savodxonligini oshirishdir.Mamlakatimizda o'zbek tilini rivojlantirishga e'tibor kuchaygan bir paytda bizning mas'uliyatimiz yana-da orta boradi.

O'quvchining yozma savodxonligini oshirishda diktantlarning ahamiyati katta.Diktantlarning qaysi turi bo'lishidan qat'i nazar , xoh saylanma,xoh grammatik yoki lug'at diktant bo'lsin,uni yozishda o'quvchi orfografiya qoidalarini bilishi va bu haqida ko'nikmaga ega bo'lishi kerak.Diktantlardan foydalanish o'quvchida fikrlash qobiliyatini oshiradi,ham yozma,ham og'zaki nutqini rivojlantiradi.

O'quvchilar savodxonligini oshirish uchun har darsda o'quvchining yoshiga mos 9-10 ta so'zdan iborat lug'at diktant olinadi.

Masalan, baynalmilal, jangovar,junjikish , mutolaa , hasharot ,bo'ysunish , jigar rang , inflyatsiya,berkitmoq , taqiqlamoq.O'quvchilar diktantni yozib bo'lgach,o'qituvchi doskaga yozadi.O'quvchilar doskadan ko'rib o'zlari tekshirib oladi.Uyga vazifa sifatida xato qilgan so'zlarini qaytadan yozib kelishadi.Zero,takror bilimning asosidir.

Fan to'garaklarida ham diktantlardan foydalanish samaralidir.Xotirangni sina metodida o'quvchilarning qo'lliga 100-110 ta so'zdan iborat matn yozilgan varaqlar tarqatiladi.O'quvchilar matnni diqqat bilan o'qib chiqqach ,yig'ib olinadi.So'ngra o'sha matn yozdiriladi.Bu metodning ahamiyati o'quvchilarning yozma savodxonligi bilan birga,xotirasi ham sinaladi.Yana shu topshiriqqa qo'shimcha sifatida matnda





keltirilgan tushunilishi qiyin bo\u043elgan so\u0437zlar izohi muhokama qilinadi va o\u0437qituvchi O\u0437zbek tilining izohli lug\u043fati”dan foydalangan holda so\u0437zlar ma\u0437nosini aytadi.Bu o\u0437quvchining lug\u043fati bilan ishslash ko\u0437nikmasini shakllantiradi.

O\u0437quvchilarning imloda eng oqsaydigan jihatni bu H va X harflari imlosidir.Talaffuzda o\u0437xshash bo\u043elganligi bois yozuvda ushbu harflarni ajratish o\u0437quvchi uchun muammoga aylanyapti.\u042Xatosini top\u043f metodida o\u0437quvchilarga X va H qatnashgan so\u0437zlar beriladi.Mazkur so\u0437zlardan xatosini topishadi.

Hil-hil	axyon-axyon
Xozirjavob	hamyon
Tahdid	xayo
Maxsulot	axloq
Holat	haloyiq
Xijolat	xolat

Topshiriqni bajarib bo\u043elgach o\u0437quvchilar qo\u0437liga O\u0437zbek tilining imlo lug\u043fati beriladi.O\u0437quvchining o\u0437zi shu so\u0437zlar imlosini topadi.Bunda ular lug\u043fati bilan mustaqil ishslashni o\u0437rganadi.Shuningdek,xato qilgan so\u0437zlarini chiroyli husnixatda uyda takroran yozib kelish buyuriladi. Yoki

\To\u043bg\u043brisini top\u043f metodida o\u0437quvchilar qo\u0437liga tarqatma tarqatiladi.Unda so\u0437zlarning to\u043bg\u043ri va noto\u043bg\u043ri yozilgan variantlari bo\u043lladi.O\u0437quvchi to\u043bg\u043ri yozilgan so\u0437zning yoniga \u0437+\u0437 belgisini qo\u0437yadi.

vakuum	vakum
afg'on	avg'on
tashviqot	tashfiqot
ne'mat	nemat
yarimorol	yarim orol
novvot	navot
biroz	bir oz
xohlamoq	xoxlamoq

Paronimlarni noto\u043bg\u043ri qo\u0437llash ham katta xatoni keltirib chiqaradi.Shuning uchun o\u0437quvchiga paronimlar bilan bog\u043fliq topshiriqlarni ko\u0437proq berish kerak.

Nuqtalar o\u0437rniga paronim so\u0437zlardan mosini qo\u0437ying.

1. Xona \u0437 , biroq kitob o\u0437qib bo\u043elmaydi. (*yoriq / yorug\u0437*)
2. Benzin, kerosin kabi \u0437 larning narxi tobora qimmatlashib bormoqda. (*yonilg\u0437i / yoqilg\u0437i*)
3. Kecha kechasi Olimni \u0437 ketishibdi. (*tunab / to\u043bnab*)
4. \u0437 im, bir qoshiq qonimdan keching. (*Shoh / Shox*)
5. Avval piyozni \u0437 , keyin to\u0437grab, qozonga sol. (*art / arch*)

O\u0437qituvchi bu topshiriqni bajartirishda tarqatmalardan yoki AKT vositalaridan foydalansa ham bo\u043lladi.Topshiriqni tahlil qilishda Paronimlar lug\u043fati dan foydalanib,har bir so\u0437zning izohini o\u0437quvchiga aytish lozim.Kutubxonaga Paronimlar lug\u043fati bo\u043elmasa ,elektron lug\u043fatlardan foydalanamiz.





Eshitishimcha ғ usuli orqali oғquvchi ham imlo,ham soғzlar izohidan birvarakayiga foydalanadi.Oғquvchilarga tarqatma tarqatiladi.Ular izoh yozilgan soғzlardan yashiringan soғzni topishlari kerak yoki teskarisini qoғllasa ham boғladi.Soғz yoziladi,oғquvchi uning izohini topadi,izohlar kamida beshta soғz yoki tushunchadan iborat boғlishi kerak.Bu topshiriqni bajarishda bizga ғO'zbek tilining izohli lug'ati қerak boғladi.

izoh	Soz	izoh	Soz
Eshitishimcha, hammada ham boғlmaydi.		Eshitishimcha, u hammani savodli qilib chiqaradi	
Samimiylit,ziyraklik Oғtkir aql	farosat	Oғqish joyi idora	maktab
Kishidagi tez va toғḡri fahmalay olish qobiliyati		yosh avlodni maғlumotli qiladi	
Zakovat ,did		Taғlim-tarbiya beradi	

Lug'atlar bilan ishslashning ahamiyati shundaki,oғquvchining soғz boyligi koғayadi,nutqi ravon boғladi,oғzbek tilining qanchalik soғzga boyligining guvohi boғladi.Bu esa oғz navbatida oғquvchining ona tiliga boғlgan muhabbatini oshiribgina qolmasdan gўurur,faxrlanish hissini ham shakllantiradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR ROYXATI:

- 1.O'zbek tilining imlo lug'ati.A.Hojiyev, T., 1995
- 2.O'zbek tilining izohli lug'ati.
- 3.Alisher Navoiy asarlari uchun qisqacha lug'at. B.Hasanov

